**Abstract.** In the digital age, cybercrime is emerging as a global problem, transcending traditional borders and jurisdictions. Cybercriminals take advantage of the unlimited capabilities of the Internet to create complex obstacles for law enforcement agencies to investigate and prosecute criminals. Jurisdiction is a major obstacle to solving these problems and complicates measures to protect citizens from online threats. This article attempts to explore the jurisdictional issues of cybercrime and their solutions.

**Key words:** Cybercrime, jurisdiction, cross-border access, international cooperation, mutual legal assistance.

## **KIBER HUQUQ SOHASIDAGI YURISDIKSIYA VA XALQARO HAMKORLIKNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**Raxmatova Xonzodabegim Utkir qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquqi yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Raqamli davr sharoitida, kiberjinoyatchilik global darajadagi muammo sifatida namoyon bo'lmoqda va an'anaviy chegaralar hamda yurisdiksiyalardan chetga chiqib ketmoqda. Kiber jinoyatchilar cheklanmagan internet imkoniyatlaridan foydalanib, huquqni muhofaza qilish organlariga tergov va jinoyatchi shaxslarni javobgargalikka tortishda murakkab to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Yurisdiksiya masalasi ushbu muammolarni hal qilishga katta to'sqinlik qilmoqda va fuqarolarni onlayn tahdidlardan himoya qilish choralarni qiyinlashtirmoqda. Ushbu maqolada kiberjinoyatchilikning yurisdiksiyaga oid muammolari va ularning yechimlarini o'rganishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Kiberjinoyatchilik, yurisdiksiya, transchegaraviy kirish, xalqaro hamkorlik, o'zaro huquqiy yordam.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N51>

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti inson va jamiyat hayotida keng imkoniyatlarni yaratishi bilan bir qatorda jinoyatchilik dinamikasida kiberjinoyatlarning soni ortishiga sabab bo'lmoqda. 2011-yilda 2,3 milliard inson, bu dunyo aholisining uchdan biridan ko'prog'ini tashkil etadi, Internetdan foydalangan bo'lsa, 2020 yilgacha bir-biriga tarmoq orqali ulangan qurilmalar soni odamlar sonidan olti barobarga oshdi va bu, o'z navbatida, internet haqidagi mavjud tushunchalarni o'zgartirib yubordi. Yaqin kelajakda internet protokoli bilan elektron dalillarni o'z ichiga olmaydigan jinoyatlar turi qolmaydi [1; 5-6-b]. Odatda, kiberjinoyatchilik ikkita asosiy toifaga bo'linadi. Birinchisida kompyuter jinoyatning maqsadi hisoblansa, jumladan, ma'lumotlar maxfiyligi, tarmoqqa

ruxsatsiz kirish yoki noqonuniy buzish, ikkinchi toifaga an'anaviy jinoyatlar: firibgarlik, qalbakilashtirish va o'g'irlik, faqat endilikda ushbu huquqbuzarliklar aloqa va axborot texnologiyalari orqali sodir etilishi bilan farq qiladi. Kiberjinoyatlar davlatdan tashqarida sodir etilishi mumkinligi huquqni muhofaza qilish organlariga katta qiyinchiliklar tug'diradi. Kompyuter yoxud yuqori axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar, kiber firibgarlik - ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlarga nisbatan xalqaro miqyosda yagona ta'rif mavjud emas, shu bois har bir davlatda huquq sohasi mutaxassisleri bunga turlicha yondashishadi. Masalan, Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Konvensiyasi (Budapesht Konvensiyasi) quyidagi harakatlarni kiberjinoyatchilik deb hisoblaydi: kompyuter ma'lumotlari va tizimlarining yaxlitligi, maxfiylikka qarshi jinoyatlar, mualliflik huquqining buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar, noqonuniy kirish, ma'lumotlar aralashuvi, tizim aralashuvi va qurilmalardan noto'g'ri foydalanish; kompyuter bilan bog'liq qalbakilashtirish; firibgarlik; bolalar pornografiyasi oid huquqbuzarliklar [2; 4-8-b].

Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha Arab Konvensiyasi Budapesht Konvensiyasiga qaraganda kengroq jinoyatlarni nazarda tutadi. Bu noqonuniy kirish jinoyati; noqonuniy ushlab jinoyati; ma'lumotlarning yaxlitligiga qarshi jinoyatlar; axborot texnologiyalari vositalarini suiiste'mol qilish; axborot texnologiyalari orqali qalbakilashtirish, firibgarlik, pornografiya, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar; elektron to'lov vositalaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq jinoyatlarni o'z ichiga oladi [3; 5-9-b].

**Metodologiya.** Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish uchun, avvalo, yurisdiksiya masalasiga atroflicha to'xtalish lozim. An'anaviy yurisdiksiyadan farqli o'laroq, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar ustidan yurisdiksiya xalqaro huquqda hududiylik, faol va nafaol fuqarolik, himoya tamoyillari asosida shakllantiriladi, shuningdek, davlat manfaatlari, jinoyat sodir etgan huquqbuzarning millati, jabrlanuvchining holatini ham o'z ichiga oladi. Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha o'kazilgan to'qqizinchi Birlashgan Millatlar Kongressida ushbu huquqbuzarliklarga quyidagicha ta'rif beriladi, ya'ni "kelib chiqishi, oldini olish jihatdan va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'siri yuzasidan bir nechta mamlakatni qamrab oladigan jinoyatlar transmilliy jinoyatlar hisoblanadi [4; 10-12-b]. Ushbu Kongress kiber jinoyatlarni transmilliy jinoyatlarning o'n sakkiz toifasidan biri sifatida e'tirof etgan. Transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha Birlashgan Millatlar Konvensiyasining 3/2 moddasiga ko'ra, "jinoyat transmilliy xarakterga ega bo'ladi, agar: (a) birdan ortiq davlatda sodir etilgan bo'lsa; (b) u bitta davlatda sodir etilgan bo'lsa-da, ammo unga tayyorgarlik ko'rish, rejalashtirish, yo'naltirish va nazorat qilish boshqa davlatda amalga oshirilsa; (c) jinoyat bitta davlatda sodir etilsa ham, biroq jinoiy faoliyat bilan shug'ullanadigan uyushgan jinoiy guruhni o'z ichiga olgan bo'lsa, (d) u bitta davlatda sodir etilgan bo'lsa-da, ammo boshqa davlatlarga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan bo'lsa [5; 15-20-b]. Konvensiyaning 2/A moddasiga asosan yuqorida ta'kidlangan holatlar qatorida uyushgan jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan kiberjinoyatchilik ushbu xalqaro hujjat bilan qamrab olinadi. Ushbu Konvensiya manfaatdor davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlikning huquqiy asosi sifatida foydalaniladi.

Kiberjinoyatchilikning xavfli jihati shundaki, global tarmoqlarning transchegaraviy tabiati sababli huquqbuzarga bir mamlakatdan osonlikcha bir nechta davlatda jinoyat sodir etishga imkon beradi. Amerikalik professor Pol Shiff Berman ta'kidlaganidek: "Elektron

bog'langan dunyoda geografik joylashuvlarga qaramasdan har qanday harakatning ta'siri darhol boshqa joylarda sezilishi mumkin" [6; 191-196-b]. Jinoyatchilarni yuqori axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jinoyat sodir etishga undaydigan bir qancha omillar mavjud, jumladan, ularga o'z davlatidan ko'ra boshqa davlatda jinoyat sodir etish kamroq harakat talab qiladi, shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqni tartibga solish siyosati doirasida mamlakatlar o'rtasidagi farq ham katta ta'sirga ega. Misol uchun bir davlatda jinoyat deb hisoblangan harakat boshqa davlatda ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanmasligi mumkin. Uchinchi masala, Internetni boshqarish, ya'ni Internet o'zini o'zi boshqarishi kerakmi yoki hukumat o'z fuqarolarini himoya qilish uchun muayyan tartib-qoidalar, jumladan kuzatuv yoki ba'zi shubhali veb-saytlarga kirishni blokirovka qilish orqali aralashishi kerakmi, bu borada juda ko'p munozaralar yuzaga kelmoqda.

**Natija.** 2003-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha idorasi uchun ma'lumot to'plandi. Kompleks o'rganish shuni ko'rsatdiki, transmilliy o'lchovni qamrab olgan kiber jinoyatlarning ulushi Yevropada 70%, Osiyo va Okeaniyada 50%, Afrikada 40 % va Amerikada 30% tashkil etgan [7; 183-185-b]. Aksincha, kiberjinoyatchilik mahalliy ham bo'lishi mumkin, ya'ni jabrlanuvchi va jinoyatchi jismonan bir davlatning hududida bo'ladi, misol uchun maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlash maqsadida kompaniyaning kompyuter tizimiga noqonuniy kirish.

Kiberjinoyatchilikning transmilliy o'lchovi mahalliy qonunchilik uchun katta texnik va huquqiy muammolarni yaratadi, jumladan, jinoyatni tergov qilishda dalillarni to'plash va jinoyatchini ushlab, bir vaqtning o'zida birdan ortiq davlatda sodir etilgan qilmishni ochish huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Bu eksterritorial tabiat milliy va xalqaro qonunlarni ishlab chiquvchilarni kiberjinoyatchilikka nisbatan yurisdiksiyaga oid kengaytirilgan yondashuvni qabul qilishga chorladi. Misol uchun, jinoyatni fosh qilish, jinoiy razvedka ma'lumotlarini almashish maqsadida tashkil etilgan 194 ta a'zo davlatdan iborat Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti (INTERPOL) va Yevropa politsiya idorasi (EUROPOL) dunyo xaxfsizligini ta'minlash uchun muhim texnik imkoniyatlarni taqdim etadi [8; 100-112-b]. INTERPOLning kiberjinoyatchilik dasturi doirasida konferensiyalar orqali davlatlar o'rtasida axborot almashinuvini qo'llab-quvvatlash, professional standartlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha o'quv kurslarini taklif qilish, kiberhujumlar, paydo bo'lgan tahdidlarni aniqlash va ushbu ma'lumotlarni a'zo davlatlarga yetkazish va boshqa bir qancha vazifalar amalga oshiriladi. Interpoldan farqli o'laroq, Europol Yevropa Ittifoqining huquqni muhofaza qilish organi bo'lib, uning asosiy maqsadi barcha Yevropa Ittifoqi fuqarolari manfaati uchun xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm va boshqa transmilliy uyushgan jinoyatchilik shakllarining oldini olish va ularga qarshi kurashishdir. 2013-yilda Europol Yevropa Kiberjinoyatchilik markazini (EC3)ni tashkil etdi. Bu markaz jinoiy tergov va operatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun kerakli axborot va razvedka ma'lumotlarini to'plab, yuqori ixtisoslashgan texnik va raqamli xizmatlar ko'rsatadi. Yevropa kiberjinoyatchilik markazi materiallari asosida Internet yordami bilan sodir etilgan uyushgan jinoyatchilikning tahdidlarini baholash (IOCTA)ning yillik hisoboti tayyorlanadi. Ushbu strategik hisobot huquqni muhofaza qilish organlari, siyosatchilar va tartibga soluvchilarga kiberjinoyatchilikka samarali va kelishilgan holda javob berishga imkon beradigan asosiy tavsiyalar beradi.

**Muhokama.** Jinoiy yurisdiksiya hududiylik, faol va passiv fuqarolik, himoya va universallik prinsiplarga asoslanadi, biroq bu mezonlar ko'p hollarda davlatlar o'rtasida

ziddiyatli vaziyatlarga olib kelishi mumkin. An'anaga ko'ra, xalqaro huquqda yurisdiksiya davlat suvereniteti va tengligi tamoyillarining markaziy xususiyati hisoblanadi. Buni suveren davlatning insonlar, mulk, vaziyatlarni tartibga solish, qonunchilik, ijro va sud hokimiyati orqali ta'sir qilish kuchi deb ta'riflash mumkin [9; 483-485-b]. Umuman olganda, xalqaro huquqda hududiylik prinsipi yurisdiksiyaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Shunga qaramay, milliy qonunchilik eksterritorial yurisdiksiyaning tan olingan faol shaxs, passiv shaxs, himoya va universallik tamoyillariga asoslangan holda davlat hududidan tashqarida sodir etilgan xulq-atvor ustidan o'z yurisdiksiyasini kengaytirishi mumkinligi ham qabul qilingan.

**Hududiylik prinsipi** - Jinoiy yurisdiksiya uchun jinoyat sodir etilgan joyga asoslangan hududiylik prinsipi mamlakat hududida to'liq yoki qisman sodir etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan tadbiiq etiladi. Har bir davlat mutlaq huquqidan kelib chiqqan holda o'z hududida: quruqlikda, dengizda yoki havoda sodir etilgan barcha xatti-harakatlar ustidan, u ijtimoiy xavfli qilmish Xalqaro huquqda yurisdiksiya davlat suvereniteti va davlatlar tengligi prinsiplarining markaziy xususiyatlaridan biridir. Uni qonunchilik, ijro farmoni yoki sud hukmi orqali odamlarga, mulklarga va holatlarga ta'sir qilish yoki ularni tartibga solish uchun suveren davlatning vakolatlari sifatida ta'riflash mumkin. Yurisdiksiya davlatning o'z hududida va ayrim hollarda o'z hududidan tashqarida ham huquqiy vakolatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

**Faol fuqarolik prinsipi** – ayblanuvchining millatiga asoslangan ushbu tamoyil orqali davlat chet elda jinoyat sodir etgan fuqarolari ustidan yurisdiksiyasini qo'llash huquqiga ega [10; 290-295-b]. Jinoyatchilikka qarshi kurashga bag'ishlangan ko'plab shartnoma va Konvensiyalarda davlatning o'z fuqarolarini ushlab berishdan bosh tortish huquqi ko'zda tutilgan. Bunday normalar jumladan, 1929-yilgi "Pul belgilarini qalbakilashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya 8-moddasida, 1929-yildagi "Pornografik mahsulotlarni tarqatishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyaning 2-moddasida o'z aksini topgan. Ushbu masala yuzasidan nazariyotchi olimlar bir-birini inkor etuvchi qarashlarni bildirganlar. Umuman bunday yondashuvlarni ikki guruhga ajratish mumkin: o'z fuqarolarini ushlab berish tarafdorlari va buni inkor etuvchilar. O'z fuqarolarini ushlab berish tarafdorlari sifatida G.Grotsiy, Vattel, Billo, G.YA.Gamaker, F.F.Martens, V.A.Ulyanitskiy, V.P.Danevskiy, P.Kazanskiy, D.P.Nikolskiy, E.K.Simeon, P.Shaland va boshqalar bo'lgan. Ushbu konsepsiya tarafdorlari o'z fikrlarini tasdiqlash maqsadida quyidagi dalillarni keltiradilar:

1) davlat o'z fuqarolarini boshqa davlat manfaatlariga zarar yetkazishdan tiyib turishga majbur. Shu bois u o'z fuqarolarining xorijiy davlat chet elda sodir etgan barcha og'ir jinoyatlari uchun jazolashi yoxud ushlab berishi lozim;

2) jinoyat qonunining hududiylik prinsipi jinoyat sodir etilgan barcha hollarda, uning fuqaroviy taalluqliligidan qat'i nazar, amal qilishi zarur;

3) jinoyat sodir etilgan joyda dalillarni to'plash, protsessual harakatlarni o'tkazish, shuningdek sudlanuvchining o'z himoyasi uchun dalil to'plashi ancha osonlashadi.

O'z fuqarolarini ushlab bermaslik tarafdorlari, xususan, S.Pufendorf fikricha, davlat faqat o'z fuqarolarini jazolashga haqli, zero jazolash huquqi davlat hokimiyatining bir muhim elementi hisoblanadi, shu bois davlat o'z yurisdiksiyasi ostida bo'lmagan fuqaroni jazolay olmaydi. Shuningdek, bu borada tadqiqotchilar quyidagi asoslarga havola etgan holda o'z fikrlarini isbotlashga harakat qiladilar:

- 1) har bir fuqaro jinoiy javobgarlikka faqat o'z mamlakati jinoyat qonuni bo'yicha tortilishi mumkin;
- 2) o'z hududidan tashqarida sodir etiladigan jinoyat uchun davlat jinoyatchini jazolay olmaydi, hattoki u o'z fuqarosi bo'lsa ham;
- 3) davlatning jinoiy sudlov hokimiyati faqat uning fuqarolarigagina taalluqli bo'ladi;
- 4) davlat zimmasiga o'z fuqarolarini himoya qilish majburiyati yuklangan. Davlat o'z fuqarosini boshqa davlatga ushlab berar ekan, o'z mamlakatida yaratib beriladigan sud ish yurituvchi kafolatlaridan mahrum etadi va shu yo'sinda uni muhofaza qilish majburiyatini buzadi;
- 5) davlatning o'z fuqarosini ushlab berishi uning siyosiy mustaqilligiga va yurisdiksiyasiga putur yetkazadi.

Davlatning o'z fuqarosini ushlab bermasligini asoslovchi dalillarni birinchidan, umume'tirof etilgan prinsip – davlat suverenitetiga bo'lgan hurmat hamda ikkinchidan, shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar zanjiridan iborat bo'lgan munosabat bilan izohlash mumkin. Shunday bo'lsa-da, amaliyotda o'z fuqarolarini ushlab bermaslik prinsipi umume'tirof etilgan deb bo'lmaydi. Zero, ayrim davlatlar boshqacha yondashuvni qo'llab-quvvatlaydilar.

**Nofol fuqarolik prinsipi** – yurisdiksiyaning ushbu tamoyili jabrlanuvchining millatiga asoslanadi, ya'ni chet el fuqarosi o'z davlatidan tashqari jinoyat sodir etsa, davlat fuqarolarini himoya qilish maqsadida boshqa davlat fuqarosi ustidan yurisdiksiyaga ega ekanligini anglatadi [11; 152-156-b]. Ushbu prinsipni qo'llash bir nechta sabablarga ko'ra tanqid qilingan va e'tiroz bildirilgan, birinchidan, chet elda o'z fuqarolariga qarshi jinoyat sodir etgan jinoyatchilarni jazolash davlatchilik uchun muhim hisoblanmagan. Jinoyatchi odatda jabrlanuvchining millatini bilmagani sababli unga nisbatan qaysi davlat qonunlari qo'llanilishini haqida ma'lumotga ham ega bo'lmaydi [12; 104-108-b]. Ushbu prinsip quyidagi holatda ziddiyatni keltirib chiqaradi, ya'ni jinoyatchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etsa-da, biroq o'sha davlat qonunchiligi bo'yicha qilmish jinoyat sifatida baholanmasligi mumkin. Passiv fuqarolik prinsipi qoidasiga asosan shaxs jismonan qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'z davlatining qonunlari himoyasi ostida bo'ladi. Shuning uchun unga qarshi jinoyat sodir etgan shaxs ham jabrlanuvchining qonunchiligi bo'yicha jazoga tortiladi [13; 153-156-b]. Kiberjinoyatchilikka nisbatan ko'plab milliy qonunlar o'z yurisdiksiyasini davlat hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan ham qo'llaydi. Bu tartib bir nechta davlatlar qonunchiliga ham aks etgan, misol uchun Misr Qonunining 3-moddasi [14; 77-80-b], 1995-yildagi Nigeriya "Kiberjinoyatchilik to'g'risida"gi Qonunining 143-moddasi [15; 130-135-b].

**Himoya prinsipi** - davlatning muhim manfaatlarini himoya qilishga asoslanadi. Mamlakat xavfsizligi va iqtisodiyotni mustahkamlashga qarshi chet elda sodir etilgan josuslik, qalbakilashtirish, kiberjinoyatchilik va transmilliy uyushgan jinoyatlarning turli shakllarini aniqlab, tergov qilish, jinoyatchilarni jazolash davlatchilikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip qanday jinoyatlarni qamrab olishi haqida aniqlik kiritilmagan, ya'ni davlat manfaatlariga zid keladigan jinoyatlarning aniq ro'yxati mavjud emas [16; 98-100-b]. Ushbu prinsipning kiberjinoyatlarga nisbatan qo'llashning ijobiy xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Tyoben ishini misol sifatida keltirsak bo'ladi. Adelaida institutining asoschisi hisoblangan Fredrik Tyoben o'z veb-saytida xolokost mavjudligini inkor etgan ma'lumotlarni tarqatgan, Germaniya sudi uni irqiy nafratni qo'zg'atish jinoyati bilan aybdor deb topgan. Xolokost Ikkinchi Jahon urushi davrida natsistlarning yahudiy millati vakillarini qirg'in

qilishlari bilan bog'liq, garchi bu so'zning o'zi bundan ancha oldin paydo bo'lgan bo'lsa ham. Ba'zi davlatlardaxolokostni ommaviy ravishda inkor etish davlat manfaatlariga zid deb baholanadi va noqonuniy hisoblanadi.

**Universallik prinsipi** – (the principle of universality) xalqaro jinoyatchilik, ya'ni butun xalqaro hamjamiyatning asosiy qadriyatlariga tajovuz qiluvchi qilmishlar uchun javobgarlikni belgilash tizimini takomillashtirish mahsuli sifatida shakllandi desak, yanglishmaymiz. Uning natijasida ushbu hamjamiyatning a'zosi bo'lmish har qanday davlat, bunday huquqbuzarliklar qayerda sodir etilganidan qat'i nazar, javobgarlik belgilanishi lozim hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro huquqda xalqaro jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslarni ta'qib qilishning universalligi to'g'risidagi ta'kidlar borgan sayin ko'paymoqda. Ushbu prinsipga muvofiq, bunday jinoyat sodir etgan shaxslar jinoyat joyi yoki fuqaroligidan qat'i nazar, jinoiy ta'qibga mahkumdirlar. Universal jinoiy ta'qib yoki universallik prinsipi mohiyati bilan o'zarolik prinsipiga muqobil hisoblanadi. Universallik prinsipi davlatning o'z fuqarosi bo'lmagan shaxslarga nisbatan yurisdiksiyasini o'tkazishi bilan tavsiflanadi. Prinsipning tabiatini o'zi baxslidir. Hatto mashhur xalqaro jinoyat huquq mutaxassisi Ch.M.Bassioni ham universal yurisdiksiya prinsipining xarakteridan kelib chiqqan holda, uning besh xil ma'nosi borligini ta'kidlaydi:

- 1) ma'lum jinoyatlar uchun universal javobgarlik;
- 2) umummilliy yurisdiksiyaga erishish;
- 3) milliy yurisdiksiyaning eksterritorial faoliyati;
- 4) xalqaro sud organlarining umumiy qamrovi;
- 5) milliy huquqiy tizimda universal yurisdiksiyaning mavjudligi [17; 44-46-b].

Universal yurisdiksiya sohasidagi bahslardan kelib chiqib va prinsipning noto'g'ri talqin qilinishining oldini olish maqsadida bugungi kunda xalqaro huquqni rivojlantirish va kodifikatsiya ishlarini olib borayotgan Xalqaro huquq komissiya tomonidan asosiy tushunchalar ishlab chiqilishi lozimligi ta'kidlanib kelinmoqda [18; 120-125-b]. Ularga quyidagilar kiradi:

- Universal yurisdiksiya tushunchasi va uning turlarining tasniflash;
- Xalqaro odat huquqiga ko'ra universal yurisdiksiya kiruvchi jinoyatlar ro'yxatini aniqlashtirish;
- Davlat mansabdor shaxslarining immunitetlari masalasi;
- Universal yurisdiksiya va xalqaro huquqqa ko'ra ekstraditsiya yoki jinoiy qidiruv masalasi o'rtasidagi munosabatlar;
- Universal yurisdiksiya prinsipini siyosilashtirishga qarshi himoyalash jarayonini ishlab chiqish;
- Universal yurisdiksiya amal qiluvchi davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish mexanizmi.

**Xulosa.** Kiberjinoyatlar bir mamlakatda sodir etilishi, boshqa mamlakatdagi shaxslarga qaratilishi va ko'plab yurisdiksiyalardagi infratuzilmani qamrab olishi tegishli sud yoki huquqni mufofaza qilish organini aniqlashni murakkablashtiradi. Shuningdek, kiberjinoyatchilikka oid qonunchilik normalarining turli mamlakatlar o'rtasida uyg'unlashmaganligi yurisdiksiya muammolarini yanada kuchaytirib yuboradi. Bir yurisdiksiyada kiberjinoyat deb tan olingan harakat, boshqasida shunday deb tan olinmasligi yoki huquqiy oqibatlari jinoiy harakatga tenglashtirilmasligi kabi huquqiy nomuvofiqliklar kiberjinoyatchilar uchun himoyalangan joylarning vujudga kelishiga olib keladi. Shu sababli

kiberjinoatchilikka qarshi kurashishda yurisdiksiya muammolarini hal qilish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Ushbu bitimlar ishtirokchi davlatlar o'rtasida axborot almashish, o'zaro huquqiy yordam berish va ekstraditsiya jarayonlari uchun aniq protokollarni belgilashi lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa Kengashi kabi tashkilotlar bunday xalqaro hamkorlik sa'y-harakatlarini osonlashtirish borasida muhim rol o'ynamoqda. Kiberjinoatchilikka oid qonunlar va tushunchalarni yurisdiksiyalar bo'yicha uyg'unlashtirishga harakat qilish kerak. Xalqaro konvensiyalar yoki namunaviy qonunlarni qabul qilish orqali kiberjinoatchilikka qarshi kurashish uchun umumiy asosni yaratish mumkin. Masalan, 60 dan ortiq mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan Kiberjinoatchilik bo'yicha Budapesht konvensiyasi ayrim kiberjinoatchilarni kriminallashtirish uchun qoidalar va xalqaro hamkorlik protseduralarini belgilab beradi. Yana bir yechim sifatida maxsus kiberjinoatchilik sudlarini tashkil etishni ilgari surish mumkin. Chegaralararo yurisdiksiyaga ega maxsus kiberjinoatchilik sudlari yoki tribunallarini tashkil etish kiberjinoatchilik ishlarini suda ko'rishni ancha soddalashtirishi mumkin. Kiberjinoatchilik va raqamli kriminalistika sohasida malakali sudyalarning va prokurorlardan iborat ushbu maxsus sudlar ko'plab yurisdiksiyalarni qamrab olgan jinoyatlarni ko'rib chiqishi va turli mamlakatlarda murakkab huquqiy jarayonlarni yuritish zaruratini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, texnologik kompaniyalar va internet provayderlari o'rtasida yaqin hamkorlik axborot almashinuvini osonlashtiradi, dalillar to'plashni samarali tarzda amalga oshirish, shuningdek, chegaralararo kiberjinoatchilik tergov jarayonlarini tartibga solish uchun umumiy standartlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Eng asosiysi, yurisdiksiyaga oid muammoni samarali hal qilish uchun, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, prokurorlar va sudyalarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish zarur.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. United Nation Office on Drugs and Crime, Comprehensive Study on Cybercrime, XVII (February 2013).
2. Council of Europe, Convention on Cybercrime 4-8, Nov. 23, 2001, E.T.S No. 185 (entered into force Jul. 1, 2004).
3. League of Arab States, Arab Convention on Combating Information Technology Offenses 5-9, Dec. 21, 2010 (entered into force Feb. 7, 2014), <http://www.lasportal.org/ar/legalnetwork/Documents>
4. The Ninth United Nation Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of the Offenders, interim report by the secretariat 4 (April 1995),
5. [https://www.unodc.org/documents/congress/Previous\\_Congresses/9th\\_Congress\\_1995/017A\\_CONF.169.15.ADD.1\\_Interim\\_Report\\_Strengthening\\_the\\_Rule\\_of\\_Law.pdf](https://www.unodc.org/documents/congress/Previous_Congresses/9th_Congress_1995/017A_CONF.169.15.ADD.1_Interim_Report_Strengthening_the_Rule_of_Law.pdf).
6. United Nations Convention against Transnational Organized Crime 6, Nov. 15, 2000, 2225 U.N.T.S 209 (entered into force Sep. 29, 2003).
7. Alexandra Perloff-Giles, *Transnational Cyber Offenses: Overcoming Jurisdictional Challenges*, 43 Yale J. Int'l L. 191, 196 (2018).
8. Comprehensive Study on Cybercrime, *supra* note 2, at 183.
9. FREDERIC LEMIEUX, INTERNATIONAL POLICE COOPERATION: EMERGING ISSUES, THEORY AND PRACTICE 1 (2d ed. 2013).
10. MALCOLM N. SHAW, INTERNATIONAL LAW 483 (8th ed. 2017).

11. MARTIN DIXON ET AL., CASES & MATERIALS ON INTERNATIONAL LAW 290 (6th ed. 2016).
12. MARTIN DIXON, TEXTBOOK ON INTERNATIONAL LAW 152 (6th ed. 2007).
13. ANDERS HENRIKSEN, *supra* note 104, at 88.
14. MARTIN DIXON, *supra* note 134, at 153.
15. Egyptian Anti-Information Technology Crimes Law, *supra* note 77, art. 3.
16. Nigerian Law on Cybercrime, *supra* note 130, art. 33.
17. MALCOLM N. SHAW, *supra* note 98, at 499.
18. Umarxanova D.Sh., Ochilov H.R. Xalqaro jinoyat huquqi. Darslik Toshkent-2019, 44-bet.
19. <http://legal.un.org/ilc/reports/2018/english/annex A.pdf>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).